


49

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI



2020 yil "07" 08



Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2020 yil "07" 08

Ro'yxatga olindi: № BD-5120100


2020 yil "07" 08

**O'RGANILAYOTGAN MAMLAKAT TABIIY VA IQTISODIY
GEOGRAFIYASI (POKISTON)**

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Ta'lim yo'nalishlari:	5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari)
	5120200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (sharq tillari)
	5120300 – Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo'yicha)

Toshkent – 2020



BS

	Гардарики, 2006. – 175 с. 10. Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1: учебник для бакалавров / И. А. Родионова. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2015. – 431 с. 11. World Population Prospects 2019. United Nations New York, 2019. – 46 p.
	Axborot manbaalari 12. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali 13. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi 14. www.tradingeconomics.com 15. https://unctadstat.unctad.org – Savdo va rivojlanish bo‘yicha BMT konferensiyasi sayti 16. http://uzgeo.uz – O‘zbekiston geograflari jamiyati sayti 17. http://geographer.ru 18. http://www.ead.gov.pk – Pokiston iqtisodiy aloqalar va statistika vazirligi 19. Ошибка! Недопустимый объект гиперссылки. Pokiston mintaqaviy tadqiqotlar instituti
	7. Fan dasturi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil “29” 08 dagi 4 -sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil “29” 08 dagi 452 -sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta’lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
	8. Fan/modul uchun ma’sullar: Azizova F.V. – TDSHU “Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti” kafedrasini o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: Ermamatov Sh.J. – TDSHU “Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti” kafedrasini mudiri, iqtisod fanlari nomzodi Sodiqov Z.R. – O‘zXIA “Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrasini mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (turdosh OTM).

Fan/modul kodi IMG122	O‘quv yili 2020-2021	Semestr 1	ECTS - Kreditlar 2	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek\rus		Haftadagi dars soatlari 2	
	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	O‘rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (Pokiston)	30	30	60
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda tabiiy va iqtisodiy jarayonlarning makon omili to‘g‘risidagi bilimlar tizimini shakllantirish, Pokiston tabiiy va iqtisodiy geografiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, ushbu xususiyatlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o‘rni va rolini tahlil qila olish ko‘nikmasini rivojlantirishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarda zamonaviy dunyo, Pokistonning jahon xo‘jaligida tutgan o‘rni va roli to‘g‘risida yaxlit tasavvurni, shuningdek, zamonaviy geografik makonni hududiy tashkil etishning turli-tumanligi va tizimliliigi haqidagi bilimlarni shakllantirish, Pokiston tabiiy va iqtisodiy geografiyasi to‘g‘risidagi tasavvurni chuqurlashtirish, tipologik yondoshuv asosida talabalarning Pokiston geografiyasi va ularning jahon xo‘jaligidagi roli to‘g‘risidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. “O‘rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (Pokiston)” faniga kirish “O‘rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (Pokiston)” fanining predmeti va uslublari, ob’ekti va sub’ekti. Fanning asosiy tushunchalari va atamalari. Geografik joylashuv va uning turlari. Iqtisodiy geografiyaning joylashuv xususiyatlari va tahlil usullari. 2-mavzu. Pokistonning geografik joylashuvi va tabiiy-resurs salohiyati Pokistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi va geografik joylashuvi xususiyatlari. Pokiston rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari. Tabiiy resurslarning Pokiston iqtisodiyotidagi roli. Foydali qazilmalar geografiyasi. 3-mavzu. Pokistonning aholi geografiyasi Pokistonning aholisi soni, tarkibi va joylashuvi. Pokiston aholisining tabiiy va mexanik harakati xususiyatlari. Pokistonda davlatning demografik siyosati yo‘nalishlari.			

	4-mavzu. Pokiston iqtisodiyoti tarmoqlari geografiyasi Pokiston iqtisodiyotining tarmoq tuzilishi. Sanoatning Pokiston iqtisodiyotidagi ahamiyati, tarkibi va rivojlanish darajasi. Pokistonning qayta ishlash sanoati. Pokistonning qishloq xo'jaligi geografiyasi: rivojlanishi va joylashishining ijtimoiy-iqtisodiy omillari. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari. Pokistonda oziq-ovqat xavfsizligi muammasi. 5-mavzu. Pokistonning transport va tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasi Pokiston transport tizimining milliy iqtisodiyot rivojlanishida tutgan o'rni va rivojlanish xususiyatlari. Transport turlari, xalqaro va ichki transport. Tashqi iqtisodiy aloqalar geografiyasi va uning tarkibi. III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1. "O'rganilayotgan mamlakat tabiiy va iqtisodiy geografiyasi (Pokiston)" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi 2. Pokistonning geografik joylashuvi va tabiiy-resurs salohiyati 3. Jahon tabiiy va iqtisodiy xaritasi bilan ishlash 4. Pokistonning aholi geografiyasi 5. Aholining irqiy, etno-lingivistik va konfessional tarkibi 6. Pokiston sanoat geografiyasi 7. Pokistonda qayta ishlash sanoati rivojlanishi va joylashishidagi yangi tendensiya 8. Pokiston qishloq xo'jaligi geografiyasi 9. Pokiston transport geografiyasi 10. Pokiston tashqi iqtisodiy aloqalarinig asosiy yo'nalishlari IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Hudud tushunchasi, alohida resurs sifatida hududning ahamiyati. 2. Pokistonning iqtisodiy-geografik joylashuvi 3. Pokistonda aholi joylashuvining asosiy jihatlari va xususiyatlari 4. Pokistonda sanoat rivojlanishining tabiiy resurs salohiyati. 5. Pokiston qishloq xo'jaligi rivojlanishida tabiiy shart-sharoitlarning o'rni va ahamiyati 6. Pokistonning xalqaro transport tizimi rivojlanishida tutgan o'rni
3.	V Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Pokiston tabiiy va iqtisodiy geografiyasining asosiy tushunchalari va atamallari, kursning boshqa fanlar bilan aloqalari, tabiiy va iqtisodiy geografiyaning nazariy asoslari haqida <i>tasavvur va bilimga ega bo'lishi</i>; • Pokiston tabiiy va iqtisodiy geografiyasi xususiyatlarini bilish, uning

	iqtisodiy-geografik rivojlanishini tahlil qilish uchun axborotlar, statistik ma'lumotlarni izlab topish, saralash va ulardan foydalanish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; • iqtisodiy-geografik jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo'llash, Pokiston aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlanishini tahlil qila olish malakasiga <i>ega bo'lishi kerak</i>.
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar 1. Azizova F.V. Xorijiy Sharq mamlakatlari geografiyasi: I qism; o'quv qo'llanma – T.: 2011. 2. Пакистан: за рамками стереотипов /Т.И.Борисов, С.А.Денисенцев, В.Б.Кашин, А.В. Лавров, Ю.Ю.Лямин, Р.Ш.Мамедов, Е.А.Пахомов, А.М.Рамм, В.П. Топычканов, М.Ю. Шеповаленко; под.ред. Т.И.Борисова, К.В.Макиенко. – М.: Центр анализа стратегий и технологий, 2019. – 208 с. 3. Экономическая и социальная география мира. В 2 т. Т. 1: учебник для бакалавров / И. А. Родионова. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Издательство Юрайт, 2015. – 431 с. Qo'shimcha adabiyotlar 4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: "O'zbekiston", 2016. - 56 b. 5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. - 488 b. 6. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. /Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b. 7. Mirziyoyev Sh.M. Halqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. /Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2018. – 512 b. 8. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' halqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. /Sh.M.Mirziyoyev. – T.: O'zbekiston, 2019. – 400 b. 9. Вавилова Е.В. Экономическая и социальная география мира: учеб. Пособие для студентов вузов /Е.В. Вавилова. – 2-изд., перераб. и доп. – М.: